

**BIOLOGIYA FANI DARSLARIDA STANDART VA NOSTANDART
TESTLARDAN FOYDALANISH VA O'QUVCHILARNING BILIM,
MALAKA VA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.**

Abduqodirova Shohista Abdumalik qizi

2-kurs magistr

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Biologiya darslarida standart testlardan tashqari nostandart testlardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish, ularning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish. Zoolgiya darslarida nostandart testlarning rasmli, juftlab yozish kabi turlaridan foydalanish.

Kalit so'zlar: Biologiya, zoologiya darslari, standart test, nostandart test, bilim, malaka ,ko'nikma, rasqli topshiriqlar, juftlab yozish, adaptiv test, integrativ test, mezonli-mo'ljal olish testlar.

Turli fanlardan tuziladigan test savollari avvalo testlar muallifining ilmiy dunyoqarashini, bilim saviyasi darajasini va ruhiyatini o'zida ifodalaydi. Testlar muallifining dunyoqarashi qanchalik keng va bilim saviyasi darjasida qanchalik yuqori bo'lsa, uning tuzgan test savollari ham ilmiy jihatdan mukammal va uslubiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun testlar tuzish va ulardan uslubiy maqsadda foydalanishdan avval o'qituvchi yetarli talab darajasida ilmiy va uslubiy ma'lumotlarga ega bo'lishi, testlarning mohiyati, vazifasi va ahamiyatini yaxshi tushunushi lozim.

Biologiyada test topshiriqlarining yalpi joriy etishdan avval, tanlangan maqsadli guruhda sinovdan o'tkazish, olingan natijalar va baholashniiig obektivligi tahlil qilinishi lozim. Bunda olingan natijalar va testlarning maqsadga muvofiqligi test topshiriqlarining qiyinlik darjasini mezoni bo'yicha baholanadi. Mezon

o‘rganilayotgan biologik ob’ektning xususiyatlarini o‘zida to‘liq aks ettirib, u talabalar tomonidan mazkur xususiyatlarni aniqlash uchun bajaradigan aqliy operatsiyalariga ko‘ra:

- 1) Reproduktiv daraja;
- 2) Produktiv daraja;
- 3) Qisman-izlanish daraja;
- 4) Ijodiy (kreativ) darajada bo‘lishi mumkin.

Reproduktiv darajadagi test topshiriqlari talabalar tomonidan yodda saqlangan biogik bilim, ko‘nikma va malakalami tanish odatiy vaziyatda axborotlami qayta ishlamasdan javob qaytarishni talab etadi. Bu darajada tuzilgan testlar talabalar tomonidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalakasini aniq baholay olishlari kerak.

Standart testlar mazmunii bo‘yicha reproduktiv va produktiv darajada, tarkibi jihatidan test topshirig‘i savoli va to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblardan iborat bo‘lsa, nostenart testlar o‘zining mazmuni, tuzilishi va qo‘llanish maqsadiga ko‘ra muayyan darajada farq qiladi.

Nostenart testlar mazmuni va mohiyatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratlladi:

1. Integrativ testlar;
2. Adaptiv testlar;
3. Mezonli-mo‘ljal dish testlari.

Integrativ testlar integral mazmuni shakl, qiyinchilik darjasini bo‘yicha o‘sib boruvchi, ta’lim muassasasining bitiruvchisining tayyorgarlik darjasini haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, talabalarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida talabaning egallashi mumkin bo‘lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalardan iborat bo‘ladi.

Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidal adaptiv testlar tashkil etib, qo‘llanish maqsadiga ko‘ra: o‘rtacha og‘irlikdagi, talabaning tanlashiga ko‘ra aralash,

topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo‘lishi mumkin.

Buning uchun pedagog-o‘qituvchi bitta mavzu ,bob, bo‘lim kurs matni bo‘yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo‘llasb mahoratiga ega bo‘lishi lozim.

Mezonli-mo‘jal olish testlari talabalarning umumiyligi tayyorlarlik darajasi, mazkur kursning o‘qitilish sifati, pedagogik pedagogik mahorati, ta’lim- tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Mezonli-mo‘jal olish test sinovlari orqali talabalarning bilimlaridagi bo‘shliqlaf aniqlanadi va ulami bartaraf etish yo‘llari aniqlanadi

Yuqorida qayd etilgan nostandard test topshiriqlarini biologiya ta’limi jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish talabalarning o‘zlashtirilgabilim, ko‘nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi.Nostandard test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o‘rinni egallaydi.

Biologiya darslarida standart testlar har bir mavzuni oxirida hamda nazorat ishlarida savol va 4 ta variantli testlar olinadi. Bunda o‘quvchilar olgan bilimlariga tayangan holda to‘g‘ri javoblarini belgilaydilar.

Nostandard testlardan har bir dars oxirida o‘quvchilarning bilimini oshirish, mavzuni mustahkamlash uchun turli xil ko‘rinishda olinadi. Nostandard testlardan tuli xil jadvallar, rasmlar orqali , juftlab yozish kabi bir qancha turlaridan foydalaniladi.

Biologiyaning botanika bo‘limida o‘simliklarni o‘rganish uchun nostandard testlarning rasmli , jadvalga solish , juftlab yozish o‘simliklarni sistemaga solish kabi turlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, mustahkamlash mumkin.

Biologiyaning hayvonlarga bag‘shlangan zoologiya bo‘limida rasmlar orqali hayvonlarning qismlarini o‘rganish, juftlab yozish kabi nostandard testlaridan foydalanib dars o‘tish orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini, hayvonlarga mexrini oshirishga yordam beradi.

O‘quvchilarning ushbu, o‘quv maqsadiga erishganlik darajasini aniqlash, nazorat qilish va baholashda ular tomonidan o‘quv materialidagi flkrlami umumlashtirish, asosiy g‘oyani qayta ishlash, misollar keltirish, o‘z fikrini bayon etish va uni himoya qilish talab etiladi. Yuqorida qayd etilganidek, ushbu darajalarni standart o‘quv va test topshiriqlari vositasida aniqlab bo‘lmaydi, ularni faqat ko‘p javobli nostandard test topshiriqlari yordamida aniqlash tavsija etiladi.

O‘quvchilarning Blum taksonomiyasi bo‘yicha bilimlami amalda qo‘llash o‘quv maqsadiga erishiiganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandard test topshiriqlari ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari ichida nazariy a va amaliyot birligi muhim o‘rin tutadi, shuni hisobga olgan holda o‘quv maqsadlaridan talabalaming o‘ziashtrigan nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llash imkoniyatini yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

J.Tolipova. MJ.Maxmudova, E.A.Soliyev. BIOLOGIYADAN

NOSTANDARTTESTLAR (2-qism)uslubiy ko‘rsatma NAMANGAN-2018